

ZAMONAVIY TA'LIM METODLARI VA ULARNING AFZALLIGI.

Xatamova Zumrad Nazirjonovna

*Farg'ona politexnika instituti “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası katta o'qituvchisi, tarix fanlari
bo'yicha PhD.*

Ishonxonova Donoxon Baxromjonovna

*Farg'ona Politexnika Instituti “Yengil sanoat va to'qimachilik” fakulteti TBT va KI M25-22a
magistranti*

Annotatsiya: *Ta'limda samaradorlikka erishish maqsadida turli zamonaviy metodlardan foydalanish. Ta'lim oluvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini, qiziqishlarini, faolligini oshirish. .*

Kalit so'zlar: *Zamonaviy ta'lim metodlari, ta'lim samaradorligi, interfaol metodlar, aqliy hujum, bahs-munozara, muammoli vaziyat, ven diagrammasi, assesment , metod.*

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga asosan talabalarga sifatli ta'lim berishda, o'qituvchi uchun juda katta ma'suliyat talab etadi. Xozirgi kunda zamonaviy o'qituvchi pedagogik-psixologik fanlarning keng bilishi, kompyuter savodxonligini chuqur o'zlashtirgan, o'z mutaxassisligini mahoratli, bilimli, siyosiy yangiliklardan doimo xabardor, keng doirada fikrlovchi va mulohazali, mehribon, jonkuyar, vatanparvar har bir yo'nalishda faol, birinchi navbatda kiyinishi, yurish – turishi va so'zlashuv madaniyati bilan xammaga o'rnak bo'lishi lozim.

O'qituvchi xar doyim o'z ustida tinimsiz ishlashi, izlanishi kerak zero bu haqda buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o'qituvchining doimiy ravishda fanlami mutolaa qilish bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: “O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o'qituvchidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi”. Hozirgi kunda fan va texnika shiddat bilan o'zgarganidek o'qituvchi ham keskin o'zgartirmog'i zarur yani nafaqat o'z mutaxassisligini balki o'z mutahassisligiga yaqin bo'lgan sohalarga qiziqishi, ilmiy ish olib borayotgan ustozlar ishlab chiqarish korxonalarini borib o'rganishi yangi zamonaviy texnologiyalari bilan ushbu korxonaning xozirgi kundagi yutuqlarini va muammolarini izlab topishi ushbu muammolarni yechimini o'ylab topishi kerak.

Ta'lim berish jarayonida o'qituvchi ko'p yillik tajribaga ega bo'lishi, turli zamonaviy metodlardan foydalanishi, talabalarni o'zlari tanlagan mutaxassisliklariga nisbatan qiziqishlarini uyg'otishi, talabalarni o'zlashtirishlarini yuqori ko'rsatkichlarga ko'tarishi, dars davomida ularni faolligini oshirib, rag'batlantirib, doimo baholab borishi zarur. Shu o'rinda dars jarayonida bir necha aqliy hujum, bahs-munozara, muammoli vaziyat, ven diagrammasi, assesment kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini mustaqil tayyorlash



talabalarni bilimini va ko'nikmalarini oshishiga, faollashuviga, mustaqil fikrlashga va o'z ustida puxta izlanishiga olib keladi.

“Aqliy hujum” metodi: biror bir muammo bo'yicha talabalarni bildirgan o'zlarini erkin fikr va mulohazalarini to'plab ular orqali bir yechimga keladigan metoddir. O'qtuvchi savol beradi, talabalarga 5-10 daqiqa vaqt beriladi, javob bergan talabani fikrini bo'lmaslik, garchi talaba xato javob bersa ham, oxirigacha talabani javobini tinglash va oxirida o'qituvchi tomonidan javoblar umumlashtiriladi. Bu usul orqali talabalar baholanmaydi faqatgina bu talabani erkin mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan metodlardan biri.

“Bahs-munozara”metodi: o'qituvchi mavzuga doir bahs- munozarali savollar tuzadi, savollar orqli talabalarni munozaraga taklif qiladi. Bildirilayotgan fikrlar kotib tomonidan yozib boriladi, bildirilgan fikr mulohazalar dars yakunida umumlashtiriladi va tahlil qilinadi. Bu usul talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi va o'z fikrini to'g'ri ekanligini harakat qilib isbotlashga imkoniyat yaratadi.

“Muammoli vaziyat” metodi: tanlangan muammoni murakabligi talabaning bilim darajasiga mos bo'lishi kerak. Talaba muammoni yechimini izlashga harakat qiladi agar yechimini izlab topa olmasa, talabani qiziqishi so'nishiga olib keladi, bu o'rinda o'qituvchi talabani qiziqtirib kalit so'zlar yordamida talabaga o'z ko'magini berishi kerak. Ushbu metod orqali talabalarni mustaqil fikrlashni, muammoli vaziyatlarni sabab va oqibatlarini tahlil qilishni va yechimini izlashni o'rganadilar.

“Ven diagrammasi” metodi: grafik tasvir orqali o'qitish usuli u ikkita, uchta va bir nechta kesishgan aylana doiralari orqali tasvirlanadi. Ushbu metodda bir-biriga bog'liqlikni, taqqoslashni o'rganamiz. Ushbu metod orqali talabalar fanni qay darajada o'zlashtirganliklari aniqlanadi va barcha talabalarni baholashga yo'naltirilgan. Mustaqil ish sifatida uyga topshiriq qilib ven diagrammasini tuzish topshiriladi. Ven diagrammasiga namuna: Libos tayyorlanishida uchala doiradagi halqalar uzviy bog'liqligi namoyon etilgan, bular bo'lmasa libos yaratilmaydi.

“Assesment” metodi: inglizcha so'zdan olingan bo'lib “baho”, “baholash” degan ma'noni anglatadi. Topshiriqlar to'plami bo'lib bahs-munozara, ijodiy ish, test, rasmlarga nom berish va boshqa topshiriqlardan iborat. Ushbu metodda talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalari holis baholandi, rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbol rejalar shakllantiriladi. “Assesment” metodiga namuna.



1-topshiriq: Quyidagi testni to'g'ri javobini belgilang.

Vitochkaning vazifasi nimadan iborat?

A) Odam gavdasiga mos shakl berish, kiyimning gavdaga yaxshi yopishib turishini ta'minlash

b) Detalda kerakli shaklni hosil qilish uchun, estetik ko'rinish berish uchun, uzoqdan ko'rinib turishi uchun

c) Detallar shaklini saqlash, kiyimni bezash uchun, maxsus kiyimdan farq qilishi uchun


2-topshiriq: Quyidagi savolga og'zaki ravishda to'g'ri javob bering.

Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun mavzularni tanlashda nimaga ahamiyat berish kerak.

3-topshiriq: Ushbu rasmga izoh bering



4-topshiriq: Venn diagrammasi



XULOSA

Xulosa qilib aytishim mumkinki, zamonaviy axborot kommunikatsiya tizimining shiddat bilan rivojlanishi natijasida pedagoglar texnika va texnologiyani chuqur bilishi va yangilik yaratish darajasida ilmi va mahoratli bo'lishi lozim. Buning uchun darsni tashkil etish jarayonida zamonaviy metodlardan foydalangan holda barcha talabalarga intellektual salohiyatini oshirish, ilmiy nazariy bilimni mustahkamlash, soda, tushunarli va oson bo'lgan metodlarni tanlashi va qo'llay olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yanada boyitishdga va takomillashtirishga olib keladi..



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi —Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi.T., 2000 y
2. Хатамова, З. (2021). Expenditure of income from taxes and levies in the kokand khanate: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1230>. In *research support center conferences* (No. 18.05).
3. Nazirjonovna, K. Z. (2022). SH. VOKHIDOV'S CONTRIBUTION TO THE STUDY OF THE HISTORY OF THE KOKAND KHANATE. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects*, 139-141.
4. Хатамова, З. (2021, June). EXPENDITURE OF INCOME FROM TAXES AND LEVIES IN THE KOKAND KHANATE. In *Конференции*.
5. Хатамова, З. (2023). Из истории денежной политики в финансовой системе Коканского ханства. *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, 1(1), 327–336. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/history-of-uzbekistan/article/view/16511>
6. Nazirjonovna, K. Z. (2022). Political-Financial Analysis of the Issues of Science of the Kokand Khanate in the Work of Khudoyorkhonzade “Anjum At-Tavorikh”. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 3(10), 102-111. Retrieved from <https://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/463>
7. Burkhonov, I. M. (2020). “ZAKAT” HAS ENSURED FAIRNESS AND BALANCE IN SOCIETY. *Theoretical & Applied Science*, (5), 201-204.
8. Muhiddinovich, B. I. (2020). Negative impact of the tax system on political life-on the example of the history of the Kokand Khanate (1850–1865). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 790-795.
9. Burkhonov, I. (2021, June). The importance of the scientific heritage of asomiddin urinboyev in the study of the history of the Kokand khanat. In *Конференции*.
10. Бурхонов, И. М. (2019). ҚЎҚОН ХОНЛИГИ МАЪМУРИЙ БОШҚАРУВИДА СОЛИҚ ТИЗИМИНИНГ СИЁСИЙ ХАЁТГА САЛБИЙ ТАЪСИРИ (1850-1865). *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (19).
11. Burkhonov, I. (2021). The importance of the scientific heritage of asomiddin urinboyev in the study of the history of the Kokand khanat: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1242>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.05).
12. Бурханов, И. (2023). Научное наследие Шарафиддина Али Язди в интерпретации Асомиддина Оринбоева. *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, 1(1), 165–171.
13. BURKHONOV, I. FROM THE HISTORY OF THE TRANSLATION OF THE WORK OF ABURAZZAK SAMARKAND" MATLA'I SA'DAYN AND MAJMA'I VAHRAIN. *ЭКОНОМИКА*, 138-144.



14. Muhiddinovich, B. I. (2022). The Importance of Asomiddin Urinboev's Scientific Research in the Study of the History of the Kokan Khanate. *Kresna Social Science and Humanities Research*, 3, 175-179.
15. Бурхонов, И. М. (2020). «ЗАКОТ»-ХАЛҚИМИЗ ҲАЁТИДА АДОЛАТ ВА МУТАНОСИБЛИК ОМИЛИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 3(5).
16. Muhiddinovich, B. I. (2022). In the Study of the History of the Kokand Khanate. *Eurasian Journal of History, Geography and Economics*, 6, 68-71.
17. Burkhanov, I. . (2022). FROM THE HISTORY OF THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF KOKAND SCIENTISTS ASOMIDDIN URINBOEV. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 2(10), 63–67.
18. Хатамова, З. (2021, August). EXPENDITURE OF INCOME FROM TAXES AND LEVIES IN THE KOKAND KHANATE: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1230>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.05).
19. Хатамова, З. Н. Особенности налоговой системы Кокандского ханства / З. Н. Хатамова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 5 (295). — С. 254-256. — URL: <https://moluch.ru/archive/295/66918/>
20. Nazirjonovna, N. Z., & Abdumannobovich, N. M. (2020). Tax system on the territory of kyrgyzstan during the Kokand Khanate. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(6), 209-212.
21. Xatamova, Z. (2020). Expenditure of state funds replenished by taxes in the history of the kokand khanate. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 5(3), 274-277.
22. Хатамова, З. Н. (2020). ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА СОЛИҚЛАР ҲИСОБИГА ТЎЛДИРИЛГАН ХАЗИНАНИНГ САРФ ЭТИЛИШИГА ОИД МАЪЛУМОТЛАР. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-1№ 4).
- Xatamova Zumradxon Nazirjonovna. INFORMATION ON THE PROVISION OF THE FUND IN THE KOKAND KHAN. *Look to the past*. 2020, SI, pp.590-595
23. А. ХОЛИҚОВ (2011) PEDAGOGIK MAHORAT .

